

MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING MAZMUNI HAMDA MUSIQIY
TARBIYA TIZIMINI TASHKIL ETUVCHI ELEMENTLAR

Xo'jageldiyeva Mahfuza Ergash qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Musiqqa ta'limi yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarining mazmuni, musiqiy faoliyatlar va ulardan dars jarayonida foydalanish haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin. Bundan tashqari ushbu maqolada musiqa san'atining inson hayotida uning ma'naviy olamida nechog'liq o'ringa ega ekanligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Axloqiy-estetik tarbiya, jamoa bo'lib qo'shiq aytish, musiqa savodi, musiqa tinglash, o'qitish tamoyillari, pedagogik texnologiyalar.

Inson hayotini musiqa san'atisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvida ham muhim o'rin o'ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi.

Har bir san'at turi singari musiqa san'ati ham juda qadim zamonlarda, odamlar g'orlarda yashab, tosh qurollaridan foydalanib, hayvon terilarini yopinib yurgan o'tmish davrlarida paydo bo'lgan. U odamlarning ma'naviy dunyosi cheklangan, tili kambag'al, atrofdagi voqea - hodisalar haqidagi tasavvurlari juda noaniq edi. Lekin shunga qaramay musiqiy asarlarni, garchi u asarlar "yovvoyi" holatda bo'lsada, ana shu qadimgi odamlar yaratgan. San'atning deyarli hamma turlari minglab yillar ilgari vujudga kelgan. San'at qandaydir birgina yerdagina emas, balki bir yo'la bir necha qit'alarda, turli kengliklar, iqlim sharoitlarida paydo bo'ldi.

Musiqiy merosni asrash tushunchasining mohiyati shunchaki o'tmish g'oyalarini ko'r-ko'rona takrorlash va saqlash emas, balki uni ongli dunyoqarash va insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o'zlashtirish va ijodni qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi. Kompozitorlarimizning xalq musiqa san'atini ijodiy o'rganishi natijasida o'zbek madaniyati xazinasiga bebaho dur bo'lib qo'shilgan san'at asarlari vujudga keldi. Go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbidan, yurak to'ridan o'rin olgan qo'shiqlar kompozitorlar ijodini shakllanishida fundamental asos sanaladi.

Maktabda musiqaviy tarbiya tizimi ko'pgina elementlardan tashkil topadi, bular: musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya, vokal va xor

studiyalari hamda to'garaklari, vokal va cholg'u ansambllari, musiqa maktablari va hokazo. Bu tizimda ommaviy axborot tizimi juda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vositalarning hammasi musiqaviy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning musiqa sohasidagi qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi. Maktabda musiqa darsi estetik tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, u ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqaviy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi.

Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan va ba'zan bir-biriga singib ketgan bo'ladi. Musiqani tinglash jarayonida o'quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy-nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to'playdilar, ularda ayni vaqtning o'zida taxlil qilish malakalari shakllanadi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytishda qo'shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmika, tovushlar uyg'unligi, tembr) rivojlanadi. Xor bo'lib qo'shiq aytish, bolalar musiqa asboblarini chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o'quvchilarni o'quv mashg'ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo'yadi.

Musiqa fanining vazifasi-bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o'rgatishdan iboratdir. Bunga biron-bir asarni o'zlashtirib va tushunib olish asosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asoslarini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin. Biroq darsda o'quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushinish atrofidagi hayotni to'la to'kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki pirovardida san'at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o'quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa darsi ham barcha fanlar qatori o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal qilmog'i kerak va bu vazifalarni qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan holda hal qilsa, maktab o'quvchilariga musiqaviy ta'lim berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Dars-maktabdagi o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruxi-sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi. O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilarning

biror maqsadga qaratilgan, izchillik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalanish vazifalari hal etiladi. Musiqa darsida o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan.

Musiqa darsida istisnosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab-quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi. Har bir musiqa darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitishi, ularning ong-bilim doiralarini kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirishi kerak. O'quvchilar darsdan-darsga go'yo pog'onadan-pog'onaga qadam qo'yganidek bilishning cheki yo'q narvondan olg'a intilib boradilar.

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. Musiqa darsi ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funksiyalarining kompleks tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlarga ta'sir o'tkazadi: o'quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik, irodaviy fazilatlarini, mehnatga munosabatini shakllantiradi.

2. Dars o'tilishi shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishdan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushintirish, mustahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasi berishdan iborat bo'ladi. Musiqaviy faoliyat turlari o'zaro bir-biri bilan bog'langan bo'lishi va bir-birini to'ldirishi kerak.

3. Dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi: u tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, ilmiy tushinish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarining puxta va ongli tarzda o'zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko'nikmalarning shakllanishiga imkon beradi.

4. Dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar tizimidagi bo'g'inlarni qamrab oladi. Ilgari qanaqa asar o'rganilganini va maktab o'quvchilari mazkur darsdan keyin nimalarni o'rganishlari zarurligini hamisha yodda tutish shart. Faqatgina yodda tutish va bilish emas, balki musiqa faoliyatlari davomida keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan ba'zi asarlarni oldindan tanishtirib ketish yo'lini vujudga keltirish kerak.

5. Musiqa darslariga tayyorgarlik ko'rish va o'tish chog'ida yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish va tarbiyalash, zamonaviy psixologik-pedagogik va metodik yondoshish hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Music as a Science and its peculiarities. *International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology*.
2. Xo'jageldiyeva, M. (2021). Dutar national instruments and performance methods. *Analytical Journal of Education and Development*, 1(06).
3. Qizi, K. M. E., & Ugli, C. S. N. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF POP ART AND ITS PLACE IN UZBEK MUSIC. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 67-71.
4. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. *Экономика и социум*, (4-2 (95)), 211-214.
5. Xo'jageldiyeva, M. Musiqa madaniyati fanining mazmuni hamda musiqaning bola tarbiyasida tutgan o'rni. *International Journal of Discourse on Innovation, Integration and Education*.
6. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
7. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
8. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.
9. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.
10. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.
11. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 13-15.
12. Nasriddin o'g'li, C. S. (2022). THE EMERGENCE OF NATIONAL POP ART IN UZBEKISTAN. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 563-566.
13. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 919-923.

14. Kho'jageldiyeva, M. Factors for Increasing Students' Musical Competence in Music Culture Classes. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(4).
15. Pardayevna, H. N. (2022). MUSIC LESSONS THROUGH SCHOOL AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ARE WAYS TO INCREASE STUDENTS' COPING SKILLS. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(3), 127-130.
16. Akramovna, S. S. (2021). Dutar National Instruments and Performance Methods. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 1(6), 329-331.
17. Inomjonovna, R. I. (2022). INTERACTIVE GAMES IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
18. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. *World scientific research journal*, 2(1), 29-32.
19. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES ARE THE MAIN TOOL OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN AND THE RELATIONSHIP WITH OTHER ACTIVITIES. *World scientific research journal*, 2(1), 25-28.
20. Inomjonovna, R. I. (2022). METHODS OF FORMATION OF IMAGINATION, THINKING AND CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *World scientific research journal*, 2(1), 58-62.
21. Inomjonovna, R. I. (2022). FINE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION AS A DEPARTMENT OF INTEGRATIVE CONTENT. *World scientific research journal*, 2(1), 63-66.
22. Рахматова, И. И. (2022). ПРОБЛЕМА СТРЕССА В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(4), 108-111.
23. Рахматова, И. И. (2022). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА В СФЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(4), 104-107.
24. Inomjonovna, R. I., & Erkinovna, E. N. (2023). SOCIAL PEDAGOGICAL FACTORS FOR PREVENTING AGGRESSIVE SITUATIONS CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION. *Journal of new century innovations*, 12(2), 29-34.
25. Inomjonovna, R. I. (2022). CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK APPLIED ARTS AND THEIR PLACE IN SOCIETY. *World scientific research journal*, 2(1), 29-32.
26. Inomjonovna, R. I. (2022). THE IMPORTANCE OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of new century innovations*, 11(2), 104-108.
27. Рахматова, И. И. (2023). АРТ-ТЕРАПИЯ КАК ЭФФЕКТИВНОЕ ЛЕЧЕНИЕ ДЕТЕЙ С ТРАВМАМИ (ВО ВРЕМЯ ВОЙНЫ, НАСИЛИЯ, СТИХИЙНЫХ

- БЕДСТВИЙ). *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 192-198.
- 28.Рахматова, И. И. (2023). УЧЕНИЯ О ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ НАСЛЕДИЯ АБУ АЛИ ИБН СИНЫ. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(6), 207-215.
- 29.Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. *Вестник Казахского национального медицинского университета*, (2-1), 628-629.
- 30.Amanbayevich, K. E. (2022). PHYSICAL AND MENTAL PRINCIPLES OF PREPARING TRADITIONAL SINGERS FOR LARGE ASHULLA PERFORMANCE PROCESSES. *Scientific Impulse*, 1(4), 288-291.
- 31.Arzikulovich, N. E. (2022). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF EXECUTIVE SKILLS IN THE NAY INSTRUMENT. *Scientific Impulse*, 1(4), 292-296.
- 32.Bakhritdinova, F., & Kangilbaeva, G. (2022, June). Features of the angiography of the eye bottom in patients with diabetic retinopathy. 24th European Congress of Endocrinology 2022.
- 33.Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2(2), 206-210.
34. Inomjonovna, R. I. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF EDUCATORS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Journal of new century innovations*, 22(1), 125-129.
35. Inomjonovna, R. I., & Xolmirzayevna, X. N. (2023). TYPES, METHODS AND METHODS OF TEACHING VISUAL ACTIVITY KNOWLEDGE AND APPLICATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 14(3), 92-97.
36. Inomjonovna, R. I. (2023). FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF IMAGING SKILLS OF PRESCHOOL CHILDREN. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(5), 74-79.